

FASILITATSIYA VA FASILITATOR YONDASHUVI XAQIDA

Mamaraimova Mohlaroyim

GulDU Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2 kurs magistri

Insonga baliq ber, va u bir kun to'q bo'ladi. Insonga baliq tutishni o'rgat, u butun umr to'q bo'ladi.

(Sharq hikmati)

Trening olib borishdan avval, tashkilotchilar trenerning etarli bilimga ega ekanligiga ishonch hosil qilmoqchi bo'ladi. Hayolga keladigan birinchi narsa – bu, tajriba va bilimni sinash. Lekin trener bilag'on bo'lishi, ya'ni barcha savollarga javob bilishi kerakmi? Keling, bir fursatga bu shunday ekanini tasavvur qilaylik. Shuningdek, tasavvur qilaylikki, bu darajadagi mutaxassis va bilag'onga bu auditoriya nima uchundur kerak. Lekin doim ham u uerda o'rinli bo'ladimi? Agarda, eski tajribaning o'lchovlari, ishtirokchilarni o'zining hali unchalik ham aniq bo'lmagan yo'ldan adashtirsachi? Trenerda tajriba bo'lishi kerak, lekin uning maxsus vazifasi bor: ishtirokchilarga qidirish unsurlarini o'rganish va ular yordamida xatto bir necha soat oldin ishtirokchilarning va qolaversa trenerning o'ziga ham ravshan bo'lmagan yangi javoblarni topishga yordam berishdir.

Fasilitatsiya: kimga va nimada yordam? "Fasilitatsiya" so'zi - facilitate so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yordam berish demakdir. Bu bilan boshlovchi tanlagan, mutaxassis rolikidan voz kechib yordamchi, o'quvchilarning qidirish jarayoniga ko'maklashish kabi alohida yondashuv bildiriladi.

Fasilitatorning vazifasi – yangi urug'larning o'sishiga ko'maklashish. Treningning eng muhim mahsuli – trening ishtirokchilarni muvaffaqiyatli professional ish uchun kerakli unsurlar bilan ta'minlashidir. Ishning natijalari shunda barqaror bo'ladiki, qachonki ishtirokchi ularni yaratishni o'zi bilsa. Trener-fasilitator harakat yo'nalishi va usullarini ko'rsata oladi. Ushbu yondashuvda ishlab, aniq bir retseptlarni ("to'g'ri javoblarni") bilish shart emas, lekin ularni qanday qilib qidirishni bilish muhim.

Umumiy qilib aytganda fasilitatorning vazifasi – ma'lumotlar bilan almashinish jarayonini yo'naltirishdir. Ushbu ko'rsatkich, o'zi ma'lumotlarni taqdim etishi, tizimga kiritishi va qarorlarni yo'naltirishi kerak bo'lgan mutaxassis yondashuvi bilan asosiy farqi iflda etadi. Badiiy qilib aytganda, mutaxassisning vazifasi – yo'nalishni barpo etib, undan yo'naltirish; fasilitatorning vazifasi esa – harakatga yordamlashish.

Fasilitator va mutaxassis yondashuvlari

Fasilitator yondashuvini tasvirlash uchun, biz kichkina tajriba o'tqazdik.

Misol. Ishtirokchilardan...bilimni chiqarib olish

Yoshi katta auditoriyalar bilan ishlash usullari bo'yicha bir necha treninglar davomida, boshlovchi ishtirokchilarni ikki guruhga bo'lar edi. Birinchi guruh, trenerning mutaxassis yondashuvining yaxshi tomonlarini, ikkinchisi esa kamchiliklarini topish vazifasini oladi.

So'ng huddi shunday vazifa fasilitator yondashuvi uchun ham beriladi. Natijada, qo'yidagi ro'yxat vujudga keldi.

Mutaxassi yondashuvi

Yaxshi tomonlari

- Nazariy mutanosiblik
- Aniq tuzilishi, mantiqiylik
- Metodikaning sayqallanganligi
- Vaqt chegaralarining aniqligi
- Tayyor qarorlar, xulosalar
- Katta auditoriyani qamrab olishi

Kamchiliklari

- Ishtirokchilarning passivligi
- Ularning tajribasi qo'llanilmaydi
- Metodikada turlilikning yo'qligi
- Ishtirokchilarning charchashi
- O'z fikrini singdirish
- Individualizatsiya yo'qligi

Fasilitator yondashuvi

Yaxshi tomonlari

- Ishtirokchilarning shaxchiy tajribasidan foydalanish
- Ishtirokchilarning faolligi
- Q Nazariya va amaliyotning birgalikda berilishi

Kamchiliklari

- Ishtirokchilar imkoniyatlarning kamligi
- Tayyor tizimni tajribaga kiritish
- Nazariya tor berilishi
- Vaqt chegaralariga amal qilish qiyin

- Ishtirokchilarning o'zaro tajriba boyitishi-

Trenerlardang katta mehnat talab etiladi

- Yangi tajribadan foydalanish imkoniyati -

Aniq rejalashtirish qiyinligi

- Oson qabul qilish va tushunib olish

- Boshlovchining ko'p energiya sarflashi

- Ishtirokchilarning ijodkorligi
- Ishtirokchilarning shaxsiyatini qurib bitqazish imkoniyati
- Qarashlarning ko'pqirraliligi
- Ishtirokchilarning bir-birlarini yaxshu tushunishi
- Boshlovchi mahoratining sayqallanishi

Shunday qilib, fasilitator yondashuvi ishtirokchilarning tajribasini jalb etish va umumiyashtirish imkonini yaratadi, shu bilan birga boshlovchi ushbu fan bo'yicha mutaxassis bo'lishi shart emas (bundan tashqari, shaxsiy fikr xolisona yondashuvga halaqit berishi mumkin!). Bu, fasilitatsiya ko'nikmalariga ega bo'lib turib, trener hojlagan mavzu, xatto umuman noma'lum mavzu bo'yicha dars olib borishi mumkin degani mi? Haqiqatdan ham, tasavvur qilaylik, trener dars boshida ishtirokchilarga XYZ mavzusi bo'yicha ikki yondashuv A va V borligini aytib o'tadi. So'ng ishtirokchilarga mashg'ulot taklif etiladi: ushbu yondashuvlarning yaxshi tomonlari va kamchiliklarini sanab o'tish. Birinchi qarashda, oson, shunday emasmi?

Butun masala shundan iboratki, fasilitatsiyadan tashqari boshlovchi mutaxassis yondashuvidan ham foydalanadi, modellar taklif etadi (yondashuvlar ro'yxati shu qatorda), ularni muhokama qilish uchun kerakli biliilarga ega.

Trenerning yondashuvi ta'lim berish usullarini tanlash bilan ham bog'liq. Fasilitator yondashuvida trener ishtirokchilarning o'z tajribasini jalb etadi va bevosita tajribaga asoslangan ish bilan bog'liq usullarni qo'llaydi – konkret vaziyatlarning tahlili, sahna o'yinlari, video orqali mulohaza bildirish, amaliy mashg'ulotlar va boshqalar. Mutaxassis yondashuvida trener ishtirokchilarga ular o'rganishi kerak bo'lgan umumiyashtirilgan professional tajribani beradi. Ushbu vaziyatda, ma'ro'za (hikoya qilib berish, bayonnoma), namoyish etish, ma'lumotli video ko'rish, konkret vaziyatlarni tahlil etish (trener mutaxassis-sharhlovchi sifatida) va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llikka). - T., 2020 y.
2. Hoshimov K, Nishonova S. Pedagogikatarixi (darslik). - T., 2005 y.287-297-b.
3. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 66-74.
4. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.
5. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. Eastern European Scientific Journal, (1).
6. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. Архив научных исследований, 2(1).
7. Anarmatovna, N. Y. (2023). КОУЧИНГДА СУХБАТ МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ. PEDAGOG, 6(2), 173-175.
8. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1832-1838.

KATTA YOSHDAGILAR TA'LIMI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Fayzullayeva Ulbo'sin

GulDU Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2 kurs magistri

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, uzluksiz ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish davr talabiga aylandi

Kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish hayot davomida ta'lim olishning muhim qismi bo'lib hisoblanadi va hozirgi zamonda bunday ta'lim butun dunyodagi odamlar va jamiyat duch kelayotgan masalalarni echishda muhim rol o'ynamoqda. YuNESKOning kattalar ta'limi bo'yicha 2009 yil dekabrda o'tkazilgan oltinchi Xalqaro konferentsiyasida (CONFINTEA VI) qabul qilingan «Belen harakatlar me'yorida»da aytilishicha, «Kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish odamlarga o'z haq-huquqlarini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish hamda o'z taqdirlarining egalari bo'lishlari uchun zarur bilimlar, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish adolat va inklyuzivlikka erishish, qashshoqlikning ko'lamini kamaytirish va savodxonlikka asoslangan adolatli, bardoshli va barqaror jamiyat yaratish uchun mutloq zaruriyat bo'lib hisoblanadi» (YuNESKO 2009).

Biroq kattalar ta'limini to'liq amalga oshirish uchun u tegishli kasbiy kompetentsiyalarga ega bo'lgan odamlarga tayanishi kerak. Odatda maktablarda bolalarga dars beradigan o'qituvchilar o'qituvchilik faoliyatini boshlashdan avval ko'pincha universitetlarda kasbiy tayyorgarlikdan o'tadilar, kattalarga dars beradiganlar uchun esa bu ko'p hollarda unday emas. Shuning uchun kattalar ta'limi sohasini professionallashtirish alohida mamlakatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham butun dunyoda asosiy muammo sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi" Qonunining 13-modasi kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimi belgilangan bo'lsa, 15 moddasida katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish, dual ta'lim, oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish shakllariga alohida e'tibor qaratilganligi, 4-modda ta'lim sohasidagi asosiy printsiplarda insonni butun xayot davomida ta'lim olishi alohida ko'rsatilan.

Yurtimiz kelajagi xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlashga bog'liq. Milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish uchun globollashuv sharoitida mutaxasislarda andragogik kompetentlikni shakillantirish mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (2020), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5349-son, 2019 yil 6 sentyabrdagi «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5812-son farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanga vazifalarda kattalar ta'limiga alohda e'tibor berilgan.

Barcha uchun ta'lim – XX asrning 90-yillarida shakllangan dunyo miqyosidagi (global) harakat bo'lib, u 2015 yilga kelib barcha bolalar, yoshlar va katta yoshdagilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Barcha uchun ta'limning yuzaga kelishiga insonning ta'lim (bilim) olish huquqini mustahkamlaydigan hujjatlarning qabul qilinishi asos bo'ldi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasining e'lon qilinganligi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Deklaratsiyaning 26-moddasida shunday deyiladi: "1. Har bir odam ilm (ma'lumot) olish huquqiga ega. Ta'lim, hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim bepul bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi lozim. Texnik va kasb-hunar ta'limi ommabop bo'lishi lozim va oliy ta'lim (ma'lumot) har bir kishining qobiliyati asosida barcha uchun bir xilda o'qishga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. 2. Ta'lim inson shaxsini to'liq rivojlantirishga hamda inson huquqlariga va erkinlik asoslariga hurmat-e'tiborni oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim xalqlar o'rtasidagi, irqiy yoki diniy guruhlar o'rtasidagi hamjihatlikka, sabr-toqatlilik va do'stlikka ko'maklashishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash bo'yicha faoliyatiga yordam berishi lozim. 3. Ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan bolalari uchun ta'lim turini tanlashda ustuvorlik huquqiga egalar".

Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YUNESKO) Barcha uchun ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida xalqaro harakatlarning o'zaro muvofiqlashtirilishini amalga oshiradi. Hukumatlar, rivojlantirish masalalari bo'yicha agentliklar, fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar va Ommaviy axborot vositalari – bular Barcha uchun ta'lim maqsadlariga erishish bo'yicha faoliyat yuritayotgan hamkorlarning bir qismigina xolos. Barcha uchun ta'lim maqsadlariga erishish darajasi baholanishini o'tkazish uchun, YUNESKO har yili "Barcha uchun ta'lim monitoringi bo'yicha Butunjahon ma'ruza" (quyida matn bo'yicha – Ma'ruza)ni e'lon qiladi. Birinchi ma'ruza 2002 yilda "Barcha uchun ta'lim – belgilangan yo'nalishga amal qilayapmizmi?" nomi ostida yuzaga keldi. 2002-2012 yillar mobaynidagi ma'ruzalarning butun ro'yxati YUNESKO saytida taqdim qilingan. Shu bilan bir vaqtning o'zida, ta'lim sohasidagi ko'plab ekspertlarni katta yoshdagilarning ilm olish muammolariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi tashvishlantirmoqda. Masalan, Katta yoshdagilar ta'limi bo'yicha Sofiya konferentsiyasi ishtirokchilari

quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Maktab yoshidagi o'quvchilarga nisbatan "Barcha uchun ta'lim" va "Butun umr mobaynida o'qib-o'rganish" dasturlari bo'yicha erishilgan yutuqlarni e'tirof etgan holda, biz, shunga qaramay, ko'plab mamlakatlarda katta yoshdagilarning ilm olishga bo'lgan ehtiyojlariga tegishli e'tibor qaratilmayotganligini qayd etamiz. Ishonchimiz komilki, savodxon bo'lish va ilm olish insonning hech kim daxl qilolmaydigan huquqi bo'lib, u insonning yoshidan qat'iy nazar, barchaga kafolatlangan bo'lishi lozim. Biz EFA – Education for All ("Barcha uchun ta'lim") dasturining Except for Adults ("Katta yoshdagilar istisno qilinib") dasturiga aylanib qolishidan tashvishlanmoqdamiz". CONFINTEA Xalqaro konferentsiyalar hujjatlari 40-yillarning oxiridan boshlab (har 12-13 yilda) YUNESKO katta yoshdagilar ta'limi masalalari bo'yicha xalqaro konferentsiya (The International Conference on Adult Education – CONFINTEA) o'tkazib keladi. Jami olti marta konferentsiya o'tkazilgan: Daniya (1949), Kanada (1960), Yaponiya (1972), Frantsiya (1985), Germaniya (1997) mamlakatlarida, so'nggi CONFINTEA VI konferentsiyasi 2009 yilda Braziliya (Belen shahri)da o'tkazildi. CONFINTEA konferentsiyasida muhokama qilish uchun asosiy mavzu (predmet) katta yoshdagilar ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolaridan iboratdir⁴⁴.

"Katta yoshdagilar ta'limi" tushunchasi rasmiy yoki boshqacha shakldagi ta'limning olg'a intiluvchan jarayonlari butun majmui (kompleksi)ni o'z ichiga olib, uning yordamida o'zlari tegishli bo'lgan jamiyat nuqtai nazarida katta yoshdagilar qatoriga tan olingan odamlar o'zlarining qobiliyatlarini rivojlantiradilar, o'z bilimlarini boyitadilar hamda texnik va kasb-hunar malakalarini takomillashtiradilar yoki ulardan o'z ehtiyojlarini va o'z jamiyatining ehtiyojlarini qondirish uchun yangi yo'nalishda foydalanadilar. Katta yoshdagilar ta'limi ham rasmiy ta'limni, ham uzluksiz ilm olishni, norasmiy o'qitishni hamda norasmiy va qo'shimcha (yordamchi) ta'limning butun doirasini qamrab oladi

Jahon amaliyotida ta'lim (maorif) sohasida **uch turdagi faoliyat** ajratib ko'rsatiladi:

♣ umume'tirof etilgan diplom yoki attestat berilishi bilan yakunlanadigan rasmiy ta'lim;

♣ odatda hujjat berilishi bilan birga kechmaydigan, ta'lim muassasalari yoki jamoatchilik tashkilotlarida, klublar va to'garaklarda, shuningdek repetitor yoki murabbiy (trener) bilan yakka mashg'ulotlar vaqtida olib boriladigan norasmiy ta'lim;

♣ kundalik hayotimizda birga kechadigan va aniq maqsadga qaratilgan xususiyatga egaligi majburiy bo'lmagan yakka bilim orttirishdan iborat axborot olish uchun xizmat qiladigan (informal) ta'lim.

Germaniyada o'tkazilgan CONFINTEA V, katta yoshdagilar o'qishi va ta'limi muhimligining xalqaro miqyosda e'tirof etilishi va ushbu sohada majburiyatlar qabul qilinishi tarixida hal qiluvchi bosqich bo'ldi. CONFINTEA V natijalari bo'yicha ikkita hujjat qabul qilindi – Gamburg katta yoshdagilar ta'limi to'g'risidagi deklaratsiyasi va "Kelajak kun

⁴⁴ http://www.unesco.org/education/efa/wef_2000/

tartibi". Ularda dunyo hamjamiyatining diqqat-e'tibori katta yoshdagilar o'qishi va ta'limi hayot davomida ta'lim olishning zarur tarkibiy qismi ekanligiga qaratildi:

➤ "...Katta yoshdagilar ta'limi va uzluksiz ta'limning xabardor va sabr-toqatli fuqarolarni shakllantirishdagi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi, savodxonlikni yoyishga ko'maklashishdagi, qashshoqlikni kamaytirishdagi, atrof-muhitni saqlashdagi amaliy hissasi shu darajada ulkanki, ulardan albatta foydalanish lozim".

➤ "Jarayon sifatida ko'rib chiqiladigan, butun umr mobaynida kechadigan yoshlar va katta yoshdagilar ta'limidan ko'zlangan maqsadlar odamlar va jamoalarda mustaqillik va mas'uliyatlilik hissini rivojlantirishdan, iqtisodiyotda, madaniyatda va umuman jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga moslashish qobiliyatlarini mustahkamlashdan, shuningdek fuqarolarning birgalikda yashashlari, sabr-toqatli bo'lishlari, o'z jamoalari hayotida ongli va ijodiy ishtirok qilishlariga yordamlashishdan iboratdir"⁴⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llikka). - T., 2020 y.
2. Hoshimov K, Nishonova S. Pedagogikatarixi (darslik). - T., 2005 y.287-297-b.
- Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 66-74.
3. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*.
4. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
5. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. *Архив научных исследований*, 2(1).
6. Anarmatovna, N. Y. (2023). КОУЧИНГДА СУХБАТ МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ. *PEDAGOG*, 6(2), 173-175.
7. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.

⁴⁵ Gamburg katta yoshlilar ta'limi to'g'risidagi deklaratsiyasi, 1997 y.